

RASMLAR ASOSIDA BOLALARNING SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISH

Aliyeva Odinaxon Alishejon qizi

Qo‘qon universiteti Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi +998 93 911 14 06

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20395250>

Abstract: Yozgan tezisimda bogcha yoshidagi bolalarning so‘z boyligini oshirishda rasmlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritganman. Rasmlar orqali bolalarning nutqini rivojlantirish, ularning tasavvuri, tafakkuri va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalalarini yozganman. Shuningdek, rasmlar asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar, savol-javob usullari, didaktik o‘yinlar va amaliy metodlar haqida batafsil ma‘lumot berdim. Tezisda maktabgacha ta‘lim muassasalarida rasmlardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ham keltirganman.

Keywords: so‘z boyligi, bolalar nutqi, vizual ta‘lim, nutq rivojlantirish, tasviriy materiallar, og‘zaki nutq, kommunikativ ko‘nikma, rasmlar o‘yinlar, tafakkur, idrok, ta‘limiy faoliyat, bolalar psixologiyasi.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tizimida bolalarning nutqini rivojlantirish, ayniqsa ularning so‘z boyligini oshirish dolzarb hisoblanmoqda. Nutq – bu bolaning fikrlash, muloqot qilish va atrof-muhitni anglash vositasi bo‘lib, uning rivojlanishi bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yosh davri bolalar nutqining eng faol rivojlanish jarayoni. Bu payitda bolajonlar yangi so‘zlarni tez yodlashni gap tuzishni o‘rganadi va o‘z fikrini ifoda etishga erishadi. Shu sababli bu payitda nutqni rivojlantirish uchun samarali o‘yinlar qo‘llash kerak. Shunday o‘yinlardan biri – rasmlar asosida ishlashdir. Rasmlar bolalar uchun qiziqarli, tushunarli va obrazli bo‘lib, ular orqali bola atrof-muhitni korish orqali anglaydi. Rasmlar yordamida bolalar yangi so‘zlarni o‘rganadi, narsalar va hodisalarni nomlashni o‘zlashtiradi, ularni aytib berish va solishtirishni o‘rganadi. Sababi shuki rasmlar bogcha ta‘limi jarayonida nutqni rivojlantirishning yaxshi foydali vositalaridan biri sanalgan. Rasmlar bolalarning nutqini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Sababi bola ko‘rgan narsasini eshitgan narsasiga qaraganda tezroq va yaxshiroq eslab qoladi. Vizual idrok orqali olingan ma‘lumotlar bolaning xotirasida uzoq saqlanadi. Rasmlar orqali bolalarda quyidagi ko‘nikmalar rivojlanadi:

- jisimlarni nomlash;
- ularning belgilarini aytish (rang, shakl, hajm);
- harakatlarni aytib berish
- voqealarni ketma-ketlikda aytish;
- gap tuzish va oz fikr bildirish.

Masalan: oddiy bir rasm – daraxt tasviri orqali bola “yashil”, “baland”, “barg”, “shox”, “meva” shu so‘zlarni o‘rganadi. Bu sozlarni aytgandan song Bolani lugati kopayadi. Tarbiyachi rasmni ko‘rsatadi, bolalarga turli savollar beradi:

- bu rasmda nimalar bor aytilarchi?
- qanday ranglarni ko‘ryapsan?
- bu bolalar nimalar qilishyapdi?

bunday savollar bolani erkin fikrlashga urgatadi va nutqi yaxshilanishga yordam beradi.

Bolalar rasm asosida voqeani aytib beradilar. Buday usullar bolalarning gap tuzish qobiliyatini shakllantiradi. Bolalarga bir nechta rasm korsatiladi va bolalardan rasmda davomi qanday buladi? hikoya tuzamiz... Bu usul bolajonlarning mantiqiy, tasavurini, nutqini

shakllantiradi. Bolajonlarga ikkita rasm beriladi, bolajonlardan rasmni solishtirishni soroladi. Bu topshiriq orqali bolajonlar farqlash va o'xshashliklarni topishni organadilar.

Didaktik o'yinlar orqali rivojlantirish. Rasmlar asosida turli o'yinlar tashkil etish mumkin: bulardan bir nechtasi; “Bu nima?” o'yini , “Ortiqchasini top” .“San uchun qaaysi biri to'g'ri?” ,“Hikoyani davom ettiramiz” Bu o'yinlar bolalarda qiziqish uyg'otadi va o'rganishni osonlashtiradi. Yosh xususiyatlariga moslash. Kichik yoshdagi bolalar uchun juda zarur. oddiy va rangli rasmlar, bitta jisimdan tasviri, Katta yoshdagi bolalar uchun:, murakkab sujetli rasmlar, voqeali tasvirlar. Bulishi kerak. Ota-onalar ham bolalar bilan rasmlar asosida ishlashi kerak: kitoblardagi rasmlarni muhokama qilish, rasm chizishga rag'batlantirish, savollar berish, juda bolalar uchun foydali.

XULOSA

Yozganlarimni qisqa qilib aytganda, rasmlar bog'cha yoshdagi bolalarning so'z boyligini oshirishda eng yaxshi usullardan biridir. Ertaklar orqali bolalar yangi so'zlarni oson o'rganishadi, ravon gapirishni organadilar va fikrlash qobiliyati shakillanadi. Rasmlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning bitta nutqini emas balki tasavvuri, diqqati ham rivojlantiradi. Shu sababli bog'chaning ta'lim jarayonida rasmlardan keng va samarali foydalanish juda foydali usullardan biri.

References:

1. Jo'rayev M., Qodirova M. – Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent, 2020.
2. Xo'jayev Sh., To'laganova Z. – Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan mashg'ulotlar metodikasi. Toshkent, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – Davlat ta'lim standarti.
4. Vygotskiy L.S. – Nutq va tafakkur rivoji.
5. Piaget J. – Bolalar psixologiyasi.